



## NAMANGAN – VODIYNING BEBAHO JAVOHIRI

Davlatimiz rahbarining hududlarga har bir tashrifi taraqqiyotning yangi yo‘nalishlarini belgilab beradi. Zero, tashrif doirasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, birinchi navbatda, odamlarning yaxshi yashashi uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilmoqda.



Prezidentimiz Namangan viloyatiga bu galgi tashrifida ham sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika, ijtimoiy soha kabi qator yo‘nalishlarda ishga tushiriladigan yangi obyektlar bilan tanishdi, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Sanoat viloyat iqtisodiyotining asosiy tayanchiga aylanib, hudud mamlakat iqtisodiy

taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘sha boshladi. Xususan, 2016-yilda viloyatning sanoat hajmi 3,4 trillionni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 37,5 trillionga yetdi. Bu ishlar atigi sakkiz yilda amalga oshirildi.

Bu davrda viloyatga 5,2 milliard dollar investitsiya kirib keldi. Qariyb uch yarim ming korxona ishga tushdi. Qurilish materiallari, elektrotexnika, to‘qimachilik, mebelsozlik, asosiysi, bir paytlar umuman rivojlanmagan yo‘nalishlar ham hozir sanoatning asosiy lokomotivi bo‘lmoqda.

Ayni paytda viloyatda 73 ta sanoat zonasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular orasida kichik, yoshlar va maxsus iqtisodiy zonalar bor. Bu nafaqat mahalliy ishbilanmonlikni rivojlantirish, balki minglab aholi uchun muqim va daromadli ish o‘rinlari yaratishga zamin bo‘lyapti. 207 korxona 239 turdagi mahsulot tayyorlab, yillik 400 million dollarlik eksport qilyapti.


Viloyatda sakkiz yil avval maktabgacha ta‘lim qamrovi atigi 24 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich 77,5 foiz. Oliy ta‘lim qamrovi esa 9,2 foizdan 50 foizga yetdi.

► Davomi 2-betda

## O‘ZBEKISTONNING KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA TAJRIBASI

### UNI MAMLAKAT CHEGARALARIDAN TASHQARIDA HAM QO‘LLASH KERAK

Xorijiy ishtirokchilar “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumi haqida



SEPTEMBER 17-18, 2025  
ROAD TO PROSPERITY  
UZBEKISTAN III INTERNATIONAL  
POVERTY REDUCTION  
FORUM

17-18-sentabr kunlari Namangan shahrida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumi bo‘lib o‘tdi. Forumning ochilish marosimida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

O‘zbekiston yetakchisi o‘z ma‘ruzasida dunyoda kuzatilayotgan geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik, iqlim o‘zgarishlari ta‘sirida global iqtisodiy o‘rish sekinlashgani, oqibatda kambag‘al aholi soni oshganiga e‘tibor qaratdi. Bu holat barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar, umuman, dunyo hamjamiyati oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qo‘yayotgani ta‘kidlandi.

So‘nggi sakkiz yilda odamlarning haq-huquqini himoya qilish, ularni munosib ish joyi bilan ta‘minlash, daromadini oshirish, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ulkan ishlarni amalga oshirdi. Yangi O‘zbekistonda barcha islohotlar har bir inson, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon etishi uchun sharoit yaratish va imkoniyatlarni kengaytirishga qaratildi, — dedi Prezidentimiz.

Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha Namangan forumining xorijiy ishtirokchilari ta‘kidlashicha, anjuman nafaqat O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish tajribasini o‘rganish va uni boshqa davlatlar bilan bo‘lishish, balki kelajakdagi muammolarni muhokama qilish imkonini berdi.

► Davomi 2-betda



### Yuksalish pallası

## DUAL TA‘LIM SAMARADORLIGI

### “INVESTOR — TARMOQ — TEXNIKUM” ZANJIRIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING YANGI MODELİ

Joriy yil 15-sentabr kuni Prezidentimiz Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida o‘qituvchi va murabbiylar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi. Tantanali uchrashuvda 40 mingdan ziyod pedagog onlayn tarzda ishtirok etdi. Qirq minglik bu ulkan armiya — ma‘rifat, ma‘naviyat, bilim va tarbiya posbonlarining Prezida bilan yuzma-yuz suhbatda bo‘lishi, ta‘lim islohotlarini birgalikda davom ettirish haqida fikr almashishi har qanday inson qalbini to‘lqinlantirmasdan qo‘ymaydi.

Bir daqiqqa to‘xtab, o‘yga cho‘msak, xayolimizda tabiiy savol tug‘iladi — kecha qanday edik, bugun qanday yuksaldik? Hayotimizga shunchalik yangiliklar, imkoniyatlar va farovonlik kirib keldiki, ularni kechagi voqealik bilan qiyoslamasdan turib baholash qiyin. Ortga nazar tashlasak, atigi sakkiz yil avval shu kunlarda o‘qituvchi va murabbiylar o‘quvchi va talabalari bilan birga paxta dalalariga chiqar, egatlarda egilib,



o‘z kasb-korlaridan mutlaq yiroq ishlarni qilishga majbur edi. Bugun esa ular mamlakat rahbari bilan yuzma-yuz muloqot qilib, kelajak taraqqiyotini belgilashda faol ishtirok etmoqda.

Davlatimiz rahbarining qat‘iy siyosiy irodasi va islohotlari tufayli yurtimizdagi eng og‘ir muammolardan

biri — majburiy mehnat tizimi butunlay barham topdi. Ayniqsa, yillar davomida o‘qituvchi va o‘quvchilarning paxta dalalariga majburan jalb qilinishiga nuqta qo‘yilishi inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan ulkan

qadam, pedagog nufuzini tiklash va jamiyatda uning haqiqiy obro‘-e‘tiborini ta‘minlagan institutsional inqilob bo‘ldi. Buni faqat biz emas, xalqaro tashkilotlar — Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), BMTning Inson huquqlari kengashi ham e‘tirof etib kelmog‘da. O‘zbekistonda majburiy mehnatning tugatilishini yuqori baholab, mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ygani ta‘kidlamoqda.

Ta‘limga qaytgan avlod va o‘qituvchilar bilan yangi O‘zbekistondagi institutsional islohotlar natijasida endilikda mamlakatimiz

ta‘lim tizimida jadal rivojlanish jarayoni kuzatilmoqda. Xususan, yig‘ilishda ta‘kidlanganidek, “investor — tarmoq — texnikum” zanjiri asosida dual ta‘lim tizimi joriy etilishi bugungi kunning yana bir muhim islohotidir. Ilm va innovatsiyaga asoslangan ta‘lim tizimi yoshlarning paxta dalalarida emas, zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarida, ilmiy laboratoriyalarda ishlashga zamin yaratadi.

Yig‘ilishda kasbiy ta‘lim tizimini jahon standartlari darajasiga moslashtirish strategik ahamiyatga ega vazifa ekani alohida ta‘kidlandi. Zero, bugungi globallashuv sharoitida raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash, yoshlarni zamon talablariga javob beradigan bilim va ko‘nikmalar bilan ta‘minlash taraqqiyotning eng muhim mezonidir. Shu maqsadda bir yil ichida 100 ta texnikumda Germaniya, Shveysariya, Xitoy, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya kabi ilg‘or davlatlarning nufuzli ta‘lim muassasalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. Bu hamkorlik, avvalo, o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va o‘qitish jarayoniga joriy etish, eng muhimi, pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, kasbiy ko‘nikmalarga ega talabgorlar xorijiy malakani baholash tizimi orqali imtihon topshirib, xalqaro sertifikat olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularga nafaqat mahalliy ish bozorida, balki transmilliy mehnat bozorida ham keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Xalqaro sertifikat orqali mutaxassisning malakasi dunyo miqyosida e‘tirof etiladi, ish beruvchi uchun uning kasbiy tayyorgarlik darajasi aniq va ishonchli mezoniga aylanadi.

► Davomi 3-betda



### Islohot odimlari

Sportda chempion degan so‘z bor. Barcha raqiblaridan ustunlikka ega, old natijalarni qo‘lga kiritib, musobaqalarda halol o‘ynaydigan sportchiga yoki jamoaga nisbatan qo‘llaniladi bu so‘z. Chempion bo‘lishning ahamiyati, salmog‘i o‘zgacha. Hammaga ham bunday maqom berilavermaydi.



## CHEMPION TADBIRKORLAR

### QANCHA KO‘P BO‘LSA, SHUNCHA YAXSHI

Endilikda bu ibora mamlakatimizdagi eng faol, ilg‘or tadbirkorlarga nisbatan qo‘llanilayotgani bejiz emas. Zero, bugun ular iqtisodiyotimizning tayanchi, yurtimiz taraqqiyotining faol ishtirokchilari, chinakam qahramonlarga aylanganini davlatimiz rahbarining o‘zi e‘tirof etmoqda.

Ana shu tadbirkorlarimiz orasida katta savdo aylanmasiga ega yirik biznes egalari ko‘p. Yaqingacha ularni tanimasdik, bilmasdik. Hozir esa daromadlari haqida ochiq gapirilyapti. Hatto yirik biznes egalarga “champion” tadbirkorlar degan nisbat berilmoqda.

► Davomi 4-betda



### Rag‘bat

## AVLONIY STIPENDIYASI

5

### OLYGOHLARDA BO‘LAJAK FIDOYI PEDAGOGLARNI KASHF ETADI





# O‘ZBEKISTONNING KAMBAG‘ALLIKKA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA TAJRIBASI UNI MAMLAKAT CHEGARALARIDAN TASHQARIDA HAM QO‘LLASH KERAK



➤ Boshlanishi 1-betda

## Luis Felipe Lopes-KALVA, Jahon bankinging global direktori:

— Xalqaro ahamiyatga ega forumda asosiy e’tibor “Kambag‘allikdan farovonlik sari” global kun tartibiga, ko‘p qirrali kambag‘allikni qisqartirish va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratishning samarali yo‘llarini topishga qaratilgan.

O‘zbekiston kambag‘allikka qarshi kurashishda o‘zini jahonda yetakchi sifatida namoyon qildi. Uning yutuqlaridan boshqa mamlakatlar uchun namuna sifatida foydalanish mumkin. Bu muvaffaqiyatning asosi inklyuziv o‘‘sish, xususiy sektorning faol ishtiroki, tadbirkorlikni, xususan, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish tamoyillariga sodiqlikdir. Bu sa‘y-harakatlarning uyg‘unligi bugungi kunda biz guvohi bo‘layotgan o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

## Simonetta SILIGATO, BMTning Loyiha xizmatlari bo‘yicha (UNOPS) Avstriyadagi vakolatxonasi direktori:

— Men Namanganda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro forumda ishtirok etib, O‘zbekiston so‘nggi yillar davomida erishgan ajoyib natijalar haqida ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lganimdan juda mamnunman. Mamlakat kambag‘allikni sezilarli darajada qisqartirdi va barqaror rivojlanishning ko‘plab sohalarida — iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy sohada muvaffaqiyatlarga erishdi. Bularning barchasi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik tufayli amalga oshirildi. UNOPS milliy sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash bo‘yicha O‘zbekiston hukumati bilan Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlar bilan hamkorlik qilishdan faxrlanadi.

O‘zbekiston Prezidenti rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlar yuksak samaralar ko‘rsatib, aholiga sezilarli foyda keltirmoqda. Bu

## Faxri SOLAK, Turk dunyosi munitsipalitetlari ittifoqi bosh kotibi:



— Biz 17-sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Namanganda ochilgan kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro forumda ishtirok etish uchun Istanbuldan keldik. Zaldagi bayroqlardan ko‘rinib turibdiki, bu yerga turli mamlakatlardan 200 dan ortiq mutaxassislar, ekspertlar to‘plangan. Bunday keng ko‘lamli forumning poytaxt Toshkentda emas, balki Namanganda bo‘lib o‘tganida ham ramziy ma‘no bor. Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi keng qamrovli va mazmunli bo‘ldi. O‘tgan sakkiz yilda kambag‘allikka qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan siyosat va chora-tadbirlar, erishilgan natijalar haqida batafsil ma‘lumot berildi. Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning qisqa vaqt ichida sezilarli darajada yaxshilangani do‘st va qardosh Turkiya uchun quvonarli yangilikdir.

## Andi ARANITASI, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YETTB) O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari va direktori:

— O‘zbekiston juda qisqa vaqt ichida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ajoyib natijalarga erishdi. Bu mamlakat rahbariyati olib borayotgan siyosatning bevosita natijasidir. O‘zbekiston Prezidenti kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha tizimli yondashuvni ishlab chiqdi, uni rivojlanishning asosiy maqsadiga aylantirdi.

Prezident o‘z nutqida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan qator chora-tadbirlarni belgilab berdi, ular mamlakatning bugungi kundagi ko‘rsatkichlariga xizmat qildi. Ayniqsa, uning ulkan maqsadi — “O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq 2030 yilgacha O‘zbekistonni kambag‘allikdan to‘liq olib

chiqishdir. Prezidentingiz aytganidek, bunga erishish juda qiyin bo‘ladi, shuning uchun ham ushbu forumning ahamiyatini ortiqcha baholash shart emas deb o‘ylayman. Bu yerda xalqaro va milliy hamkorlar ishtirokida mamlakatning ana shu ezuq maqsad sari olg‘a siljishiga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

## Muhammad Zubayr Ashraf Usmoniy, “Habib Bank Ltd” shariat kengashi raisi (Pokiston):



— Men O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning anjumanning ochilish marosimidagi nutqini katta qiziqish bilan tingladim. Uning nutqi ma‘lumotlarga boy va ilhomlantiruvchi bo‘ldi. Davlatning rahbari hukumatning kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirayotgan muhim dasturlarini aniq belgilab berdi va bu sa‘y-harakatlar o‘z samarasini bermoqda.

Ishonchim komilki, O‘zbekiston tajribasini mamlakat chegaralaridan tashqarida ham qo‘llash dunyo aholisi farovonligiga xizmat qiladi. Kambag‘allikka qarshi kurashish global muammo va O‘zbekiston modeli esa ko‘plab davlatlar uchun namuna bo‘lishi mumkin.

Men xalqaro hamjamiyatni O‘zbekiston tashabbuslariga e’tibor qaratishga, bu tajribani o‘zlashtirishga, o‘z xalqlari manfaatini yo‘lida qo‘llashga chaqirmoqchiman.

“Dunyo” AA  
Namangan



## Nuqtayi nazar

# NAMANGAN — VODIYNING BEBAHO JAVOHIRI

## TARIXIY TASHRIF EZGULIK VA O‘ZGARISHLARDAN DARAK

➤ Boshlanishi 1-betda



## Xalchaxon MIRZAYEVA, O‘zbekiston Qahramoni:

— Namangan mamlakatimizning bebaho javohiri, vodiyning yuragi. Bu azim kent mehnatkash xalqi, buyuk tarixi va ma‘naviyat beshigi sifatida yurtimiz taraqqiyotida muhim o‘rin tutib kelgan. Axsikent kabi tarixiy shaharlari zamonlar osha ilm-ma‘rifat va savdo-iqtisodiy hayotning markazi sifatida bu zaminning yuksak salohiyatini namoyon etadi.

Bugun ham viloyatimiz mamlakatimiz iqtisodiy quvvatiga qudrat qo‘shayotgan peshqadam hududlardan biri sanaladi. Keyingi yillarda viloyat jahon bozoriga sanoat xabi sifatida kirib bordi. Namanganliklar tadbirkorlikka moyilligi va

mehnatsevarligi bilan yaratilgan imkoniyat va imtiyozlardan samarali foydalanib, ularni amaliy natijalarga aylantira oldi.

Prezidentimizning viloyatga tashrifi doirasida Namangan viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda bu ishlar keng tahlil qilindi, yutuqlar e’tirof etildi. Bu bejiz emas. Chunki viloyatimizda yaratib berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish darajasi yuqori. Fikrimcha, shuning uchun ham davlatimiz rahbarining ertalab boshlangan navbatdagi tashrifining birinchi kuni viloyatimizni iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan yanada rivojlantirish, namanganliklar hayoti

farovonligini oshirishga qaratilgan ishlar bilan tanishish, mutasaddilar va aholi bilan bevosita muloqot qilish asnosida kechki soat 10 larda nihoyasiga yetdi.

Aslida, qat‘iy protokol qoidalaridan chetlashilgan mana shu jihatning o‘ziyoq namanganliklar uchun ko‘p yaxshiliklar, o‘zgarishlardan darak beradi. Zero, tashrifning har bir soati, daqiqayu soniyasi viloyat hayotiga doir muhim yangilanishlarga tamol toshi bo‘ldi.

Ayniqsa, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan siyosatning amaliy samarasi Namanganda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, joriy yil boshida viloyatda kambag‘allik darajasi 7,6 foizni tashkil etgan



# YANGILANISHLAR SHUKUHI HUDUDLAR TARAQQIYOTIGA KUCHLI TURTKI BERADI

Prezidentimizning Namangan viloyatiga bu galgi tashrifi ham tig‘iz kun tartibiga boy bo‘ldi. Ikki kunlik safar davomida davlatimiz rahbari sanoat, qishloq xo‘jaligi, energetika, ijtimoiy soha kabi qator yo‘nalishlarda ishga tushirilgan yangi obyektlar bilan tanishdi. Viloyatni kompleks rivojlantirish masalalari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi. Faollar bilan yig‘ilishda viloyatda islohotlar natijadorligini yanada oshirish bo‘yicha qator ko‘rsatmalar berdi.

Xususan, mahallalarni obod qilish bo‘yicha muhim tashabbusni ilgari surdi. Unga ko‘ra, yurtimizda “Taraqqiyot va yetakchilik maskani” dasturi amalga oshiriladi. Islohotlar shtabiga viloyatdagi xushmanzara joylar bo‘yicha master-reja ishlab chiqib, amalga oshiriladigan loyihalar hisobiga keyingi yilda 50 ming odamni ishli va daromadli qilish topshirildi.

Mamlakatimizda tadbirkorlarga munosib sharoit yaratish, iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va aholi bandligini ta‘minlash maqsadida joylarda texnopark va kichik sanoat zonalarini tashkil etilmoqda. Namangan viloyatida bugun 1500 gektar

maydonda 70 dan ortiq sanoat zonasi mavjud. Ushbu maxsus hududlar nafaqat million-million dollarlik mahsulotlar tayyorlanib, eksportga yo‘naltirayotgani, balki minglab daromadli va muqim yangi ish joylari ochilishiga zamin bo‘layotgani bilan ham ahamiyatli.

Bundan atigi 10 yil oldin bu imkoniyat, sharoit va rag‘batni, o‘z navbatida, keyingi yillardagi islohotlarning samarasi o‘laroq viloyatimiz taraqqiyoti bilan bog‘liq bugungi natijalarni tasavvur qilib bo‘lmasdi. Bir paytlar iqtisodiy qiyinchiliklar girdobida qolgan, davlat dotatsiyasi hisobidan kun kechirgan Namangan hozir mamlakatimizning yirik



## Bahodir YUSUPOV, mehnat faxriysi

sanoat va eksport markazi sifatida e’tirof etilyapti. Bu shunchaki quuruq gap yoki balandparvoz maqtov emas, buning zamirida Prezidentimiz boshlab bergan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga hamohang ravishda viloyatimizda boshlangan yangilanish jarayoni, namanganliklarning katta mehnati yotibdi. Buni viloyatimizdagi sanoat hajmi 2016-yildagi 3,4 trilliondan 2025-yilda 37,5 trillionga yetgani ham tasdiqlaydi.

Mazkur ko‘rsatkich maqtanishga arzigulik natija. Axir bunga juda qisqa muddatda, bor-yo‘g‘i sakkiz yilda erishildi. Shunday bo‘lsa-da, maqtanish, to‘g‘rirog‘i, faxrlanish kerak bo‘lsa, men umuman boshqa bir jihatni aytgan bo‘lardim. Bu — ishonch! Prezidentimizga, mamlakatimizdagi islohotlarga, kelajakka ishonch. Jamiyatimizda odamlarning bir-biriga, davlatga, tadbirkorlikka, qo‘yingki, o‘zi qilayotgan ishning kelajagiga ishonch mustahkam qaror topgani sayin yangi O‘zbekiston taraqqiyoti jadallashib boryapti, nazarimda.

Bugun qo‘lga kiritayotgan barcha yutuqlarimiz zamirida xalq va davlatning yagona maqsad yo‘lida bir tanu bir jon bo‘lib harakat qilayotgani mujassam. Shu bois, Namangan tajribasi o‘rinli islohotlar tufayli qisqa muddatda ham tub o‘zgarishlarga erishish mumkinligining yorqin isbotidir.

Bundan 6-7 yil avval “kambag‘al oila” degan ibora hatto lug‘atimizda ham yo‘q edi. Kambag‘allik yopiq mavzu, rasman taqiqlanmagan bo‘lsa-da, bu haqda og‘iz ochish mumkin emasdi.

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish siyosatining amaliy samarasi Namanganda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Zero, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” mavzusidagi III xalqaro forumning aynan viloyatimizda o‘tkazilganida ham o‘ziga xos ma‘no bor.

bo‘lsa, hozir 6,7 foizga tushdi. Ya‘ni qisqa vaqt ichida minglab oilalar kambag‘allik domidan chiqish imkoniga ega bo‘ldi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, yil yakuniga qadar bu ko‘rsatkich 5,3 foizgacha tushishi kutilmoqda.

“  
Deyarli to‘xtab qolgan uy-joy qurilishi sohasi keyingi yillarga kelibgina jonlandi. Jumladan, viloyatimizda oxirgi yillarda 638 ta ko‘p qavatli uy barpo etildi. 23 ming oila yangi, zamonaviy xonadonlarga ko‘chib o‘tdi.

Ochig‘i, viloyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, namanganliklar hayotiga doir bu kabi yutuqli natijalar ro‘yxatini yana uzoq davom ettirish mumkin. Muhimi, har bir muvaffaqiyat odamlarimiz hayotidagi sezilarli o‘zgarishlar tasdig‘i sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Prezidentimizning yig‘ilishdagi nutqini eshitib o‘tirib, bir paytlar qishloq xo‘jaligida ishlagan davrlarim ko‘z o‘ngimdan o‘tdi. U paytdagi qiyinchiliklar qayerda-yu, bugungi fermerlarga yaratilayotgan sharoitlar qayoqda?!

Qolaversa, viloyatimiz darvozasi — aeroportimiz yangilanyapti. Eski aeroport 1971-yilda qurilgan. O‘tgan yillar davomida u ma‘nan eskirgandi. Faqat 400 yo‘lovchini o‘tkazish quvvatiga ega obyekt aholi ehtiyojlariga javob bermay qolgandi. Uning past quvvati va texnik jihatdan ortda qolishi hudud rivoji uchun jiddiy to‘siq bo‘lib keldi. Sayyohlar oqimini chekladi, biznes rivojini sekinlashtirdi, viloyatning investorlar uchun jozibadorligini pasaytirdi. Xizmat ko‘rsatish sifati ham zamonaviy standartlarga javob bermasdi.

Qisqa fursatda aeroport atrofidagi infratuzilma ham o‘zgaradi, dunyoning ilg‘or tajribasidagi kabi aeroport atrofiga mehmonxonalar, savdo va ko‘ngilochar majmualar, barcha zamonaviy xizmatlar yo‘lga qo‘yiladigan bo‘ldi.

Bunday xayrli ishlardan biz, nuroniyalar behad sevindik. Yurtdoshlarimizning bugungi yashayotgan kunidan roziligi, ertangi kunga ishonchini mustahkamlashga zamin bo‘layotgan ana shunday bunyodkorlik ishlariga barchamiz kamarbasta bo‘lamiz.

“Inson qadri uchun” tamoyili asosida manzilli ijtimoiy daftarlar joriy etilib, barcha ehtiyojmand oilalar qamrab olingani va ular maqsadli qo‘llab-quvvatlanayotgani ham katta samara bermoqda. Agar buni viloyatimiz misolida olsak, joriy yil boshida hududda kambag‘allik darajasi 7,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozir 6,7 foizga tushdi. Qisqa muddatda minglab oilalar kambag‘allikdan chiqarildi.

Yillar davomida qir-adirlikdan iborat qaqroq yerlarni o‘zlashtirish nafaqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini ko‘paytirish, balki aholi bandligi, hududlar rivojiga ham xizmat qiladi. Davlatimiz rahbarining keyingi yillarda adirlarni o‘zlashtirish masalasiga e’tibori sabab Namangan viloyatidagi minglab gektar maydon bugun yashillikka burkandi, go‘zal shaharlarga, yurtdoshlarimizga rizq ulashayotgan bog‘u bo‘stonga aylandi.

2016-yilga qadar Namangan viloyati aholisining qariyb yarmi toza ichimlik suvdan mahrum edi. Qishloqlarda suv quduq va ariqlardan tashib kelinar, shaharlarda esa eskirgan tarmoq odamlarni qiynardi. Bu holat nafaqat turmush sifatiga, balki sog‘liq va ijtimoiy muhitga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatardi.

“  
Oxirgi yillarda bu yo‘nalishda ham butunlay yangicha yondashuv yo‘lga qo‘yildi. Viloyatda 5,2 ming kilometr ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari tortildi. Natijada markazlashgan ichimlik suv qamrovi 59,5 foizdan 87 foizga yetdi. Bu 100 minglab oila hayotida tub o‘zgarish yasagan ko‘rsatkichdir.

2018-yilda turizm eksporti bor-yo‘g‘i 2,5 million dollar bo‘lgan. Bu raqam viloyat imkoniyatiga nisbatan juda past edi. Oradan 5 yil o‘tib, bu ko‘rsatkich 204 million dollarga yetdi. Qariyb 80 barobar o‘sishga erishildi! Mana shularni ko‘rib, kuzatib o‘ylab qolasiz kishil: qilsa bo‘lar ekan-ku!

Shuningdek, “Afsonalar vodiysi” kabi yirik loyihalar va xalqaro gullar festivali Namanganni bor bo‘y-basti bilan butun dunyoga olib chiqdi.

Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimizning hududlarga tashrifi yangilanish shukhi va kayfiyatini olib kelmoqda. Binobarin, har bir safar hududlar taraqqiyotiga kuchli turtki beradi. Yangi o‘sish nuqtalarini belgilash va joylardagi dolzarb muammolarni hal qilish imkoniyatiga aylanadi.



# “INVESTOR – TARMOQ – TEXNIKUM” ZANJIRIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING YANGI MODELI



Qo'ng'iroq SHARIPOV, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Boshlanishi 1-betda

## Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy kafolati

Yurtimizda yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, munosib ish bilan ta'minlash doim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu maqsadda jozibador investitsiya muhiti shakllantirildi. Xususan, qo'shma korxonalar, klasterlar va kooperatsiyalar keng yo'lga qo'yildi. Bu orqali nafaqat mahalliy, balki xorijiy investorlar ham ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida hamkorlikka qiziqish bildirmoqda. Natijada tadbirkorlik hamda biznes muhiti rivojlanib, yoshlarning startap va innovatsion g'oyalari amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratildi.

Yig'ilishda ilgari surilgan fikrlardan yaqqol ko'rindiki, O'zbekiston ta'lim tizimi jahon standartlari bilan uyg'unlashib, sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo'yimoqda. Davlat siyosatining ustuvor maqsadi sifatida yoshlarni global iqtisodiy va texnologik muhitda raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash, bilim va ko'nikmalarini xalqaro mezonlarga moslashtirish belgilangan.

Shu maqsadda joriy o'quv yilidan Buyuk Britaniyaning nufuzli "Pirson" kompaniyasi bilan hamkorlikda hududlardagi 14 ta texnikumda "BITEK" xalqaro dasturi yo'lga qo'yildi. Mazkur dastur mamlakatimiz kasbiy ta'lim tizimidagi muhim innovatsiya bo'lib, u yoshlarga xalqaro standartlar asosida chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar berishga yo'naltirilgan. Eng muhimi, dastur orqali talabalar turizm, axborot texnologiyalari, tibbiyot, qurilish, logistika, energetika, mashinasozlik, biotexnologiya va kreativ iqtisodiyot kabi ustuvor sohalarda xalqaro e'tirof etilgan sertifikatlariga ega mutaxassis bo'lib yetishadi.

Qo'shma ta'lim jarayoni ta'lim mazmunini tubdan boyitish bilan birga yoshlarning innovatsion fikrlashi, kreativ tafakkuri va zamonaviy dunyoqarashini rivojlantirishda hal qiluvchi omilga aylanadi. Natijada nazariy bilim bilan amaliy ko'nikmalar uyg'unlashgan, ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan va xalqaro bozorda raqobatlasha oladigan kadrlar yetishib chiqadi. Shubhasiz, xalqaro dasturlar asosida bilim olgan yoshlar nafaqat ichki bozorda, balki global mehnat maydonida ham o'z o'rnini topa oladi. Ta'lim ularning shaxsiy taraqqiyoti uchun yangi imkoniyatlar eishigini ochsa, keyinchalik mamlakatimiz iqtisodiy rivoji va intellektual kapitali yuksalishiga qudratli asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, "ta'lim — fan — ishlab chiqarish — biznes" zanjirida mutlaqo yangi sifat bosqichi shakllanmoqda. Shu orqali har bir yosh o'z iqtidori va qobiliyatini



to'liq namoyon etishi mumkin. Demak, yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy kafolati zamonaviy bilim va kasbiy malakaga ega, innovatsion tafakkur bilan qurollangan yoshlardir.

O'zbekistonda yoshlarning barqaror taraqqiyotidagi o'rni va roli davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida

belgilangan. Prezidentimizning "Kelajak zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yangi kasb egalariniki bo'ladi", degan so'zlari mamlakat taraqqiyotining strategik yo'nalishini aniq belgilab berdi. Innovatsion bu g'oya ta'lim tizimi hamda o'qituvchi, pedagoglar, professor-o'qituvchilar oldiga muhim vazifalarni qo'yadi.

## Investitsiya va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish — dolzarb vazifa

Mamlakat iqtisodiyotining jadal sur'atlar bilan taraqqiy etishi, avvalo, investitsiya oqimi bilan chambarchas bog'liq. Investorlar doimo tinch-osoyishta, huquqiy kafolatlari mustahkam, biznes muhiti shaffof va eng muhimi, kadrlar salohiyati yuqori mamlakatlarga sarmoya yo'naltirishni afzal ko'radi. Shu ma'noda, siyosiy barqarorlik, mehmondo'st va samimiy xalqimiz, uzluksiz islohotlarga qaratilgan qat'iy siyosat yurtimizning beqiyos boyligi hamda investitsiyaviy jozibadorligini ta'minlamoqda.

Har yili iqtisodiyotimizga 30-35 milliard dollar miqdorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya jalb etilishi bu jarayonning yorqin dalilidir. Ushbu mablag' iqtisodiyot tarmoqlari diversifikatsiyasi, texnologik modernizatsiya jarayonlari va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Biroq investitsiyalar samaradorligini ta'minlash, ularning to'liq foydasini chiqarish uchun bilimli va malakali kadrlarni tayyorlash sifatini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish zarur.

Oliy ta'lim tizimi nuqtayi nazaridan, bu jarayon raqamli texnologiyalar, innovatsion yechimlar va ijodiy yondashuvni chuqur o'zlashtirish mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari bozor talablariga uyg'un holda yangilanmoqda. Talabalarning amaliy ko'nikmalarini kuchaytirish, ularni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish, startap va innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash ta'lim siyosatida ustuvor vazifaga aylangan.

Yig'ilishda qayd etilganidek, investitsiya oqimlari natijasida har yili yuqori daromadli 250-300 ming ish o'rni yaratilayotgani yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar eishigini ochmoqda. Biroq ushbu imkoniyatdan to'laqonli foydalanish uchun kadrlar zamonaviy texnologiyalarni puxta o'zlashtirishi, xorijiy tillarni mukammal bilishi va kasbiy malakasi bilan xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi shart. Shu bois, vazirligimiz ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan keng foydalanish, xalqaro tajribani o'rganish va ilg'or standartlar asosida ta'limni tashkil etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunda qo'shma ta'lim loyihalari, ilmiy laboratoriyalar va dual ta'lim tizimi kabi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etyapti.

## Inson kapitaliga yo'naltirilgan siyosat

So'nggi sakkiz yildagi keng qamrovli islohotlar ta'lim va tarbiya sohasi uchun mutlaqo yangi davrni boshlab bergani aniq. Qisqa vaqt ichida qo'lga kiritilgan natijalarning o'n yillik yutuqlarga teng kelishi, avvalo, inson kapitaliga yo'naltirilgan uzluksiz davlat siyosati samarasidir.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Kelajak — zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli yoshlar qo'lida".

Darhaqiqat, taraqqiyot asosi ilim va tarbiyada. Ta'lim tizimining yuksalishi ustoz va murabbiylar fidoyiligi, jamiyatda



eng muhim sohalardan biri sifatida ta'limga berilgan e'tibor hamda unga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishga aylanganida namoyon bo'lmoqda. Kelajak avlod taqdiri, mamlakat taraqqiyoti va millat istiqloli, birinchi navbatda, murabbiylar zimmasiga yuklatilgan ulug'vor mas'uliyat bilan chambarchas bog'liq.

Kelgusi yillarda mamlakat iqtisodiyotining ikki barobar o'sishi kutilmoqda. Yalpi ichki mahsulot hajmi 130 milliard dollarga yetishi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad esa 3,5 ming dollardan oshishi ta'lim va fan sohasi uchun keng imkoniyatlar eishigini ochmoqda. Iqtisodiy o'sish nafaqat resurs va zaxiralarni kengaytiradi, balki ta'lim infratuzilmasiga yirik sarmoyalar yo'naltirishga ham zamin yaratadi. Bu esa oliy va umumta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlari ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tariqa iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liq holda ta'lim sohasi ham jadal taraqqiy etadi. Demak, yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy poydevori inson kapitali, ya'ni bilimli, malakali va innovatsion tafakkurga ega yoshlardir.

Yig'ilishda soha uchun 2026-yil — Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish yili bo'lishi ta'kidlangani mamlakat ta'lim siyosatida yangi bosqichni boshlab berishi shubhasiz. Amalga oshiriladigan bo islohotlar nafaqat yoshlarni zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi, balki ularning xalqaro standartlarga mos raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga ham zamin yaratadi. Shu maqsadda tashkil etilishi ko'zda tutilgan Kasbiy ta'lim agentligi mamlakat bo'ylab faoliyat yuritayotgan qariyb 600 ta texnikumni yagona tizimda birlashtirib, yangi ta'lim muhitini shakllantiradi. Agentlik zimmasiga qator ustuvor vazifalar yuklanadi: innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish, ta'lim dasturlarini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash, nazariya bilan amaliyotni uyg'unlashtirish hamda ta'lim jarayonini ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish.

Oliy ta'lim va kasbiy ta'lim o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoshlar uchun keng imkoniyatlar eishigini ochadi. Yoshlar ishlab chiqarish jarayonlarida to'g'ridan to'g'ri ishtirok etish orqali amaliy tajriba to'playdi, ularning kasbiy malakasi yuqori darajada shakllanadi. Shu bilan birga, korxonalar ham raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlanadi. Bu jarayon iqtisodiyotning



barqaror o'sishi, texnologik modernizatsiyasi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yo'lga qo'yishda mustahkam poydevor bo'ladi.

Chunonchi, 2026-yil tashabbusi ta'lim siyosatida tub burilish nuqtasi bo'lib, mamlakatda "ta'lim — ishlab chiqarish — innovatsiya" zanjiri to'liq shakllanishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda O'zbekiston sanoatida kelgusi yilda 45 milliard dollarkli 456 ta yirik investitsiyaviy loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan iqtisodiyotimizning diversifikatsiya va modernizatsiya jarayonlari qanday tez sur'atda kechayotganini ko'rsatadi. Bu kabi ulkan tashabbuslar samaradorligini ta'minlash uchun kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqarish bilan chuqur integratsiya qilish juda muhim.

Yig'ilishda ta'kidlandiki, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida "investor — tarmoq — texnikum" zanjiri asosida dual ta'lim tizimi joriy etiladi. Bu yondashuv yoshlarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, ishlab chiqarish korxonalarini esa malakali kadrlar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, texnikumlar va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasida zamonaviy ustaxonalar qurish bo'yicha tanlov o'tkazilishi, g'oliblarga zamonaviy uskunalar, jihozlar va sport anjomlari taqdim etilishi ta'lim jarayoni sifatini yanada oshiradi.

Xalqaro tajriba ham ko'rsatadiki, dual ta'lim tizimi sanoat va ta'lim o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytiradi. Masalan, Germaniyada amal qilayotgan Dual System har yili 1,3 milliondan ziyod talabani qamrab olib, ularning ish bilan ta'minlanish darajasini keskin oshirgan. Bu model nafaqat ishchi kuchi sifatini oshirdi, balki mamlakat sanoatining innovatsion raqobatbardoshligini ta'minladi.



Ta'lim tizimini modernizatsiyalash, uni xalqaro standartlarga integratsiya qilish va yoshlarni global mehnat bozori talablariga mos ravishda tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Shu yo'l bilan mamlakatimizda sanoatning barqaror rivojlanishi uchun zarur kadrlar tayyorlanadi, yoshlar esa innovatsion tafakkurga, kasbiy malaka va zamonaviy ishlab chiqarish tajribasiga ega mutaxassis sifatida shakllanadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy kafolati bilimli, raqobatbardosh, kasbiy jihatdan yetuk yoshlardir. Chunki kelajak ta'lim va pedagogga berilayotgan e'tiborda, jamiyatning intellektual kapitali hamda barqaror taraqqiyot poydevorida mujassam.

## Uzluksiz tizim

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimiga taraqqiyotning muhim asoslaridan biri sifatida qaralmoqda. Keyingi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari va qator me'yoriy hujjatlar



maqtabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limga qadar yagona va uyg'un tizimini shakllantirishga yo'naltirildi. Bu jarayonning dastlabki bosqichi sifatida maqtabgacha ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratildi. Agar 2016-yilda qamrov darajasi 27 foizdan oshmagan bo'lsa, bugungi kunda 78 foizga yetdi. Yaqin yillarda esa qamrov 80 foizdan yuqori bo'lishi kutilmoqda.

Bu raqamlar mamlakatda bolalarga ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytib, ularning kelgusi bosqichlardagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevor yaratilayotganini anglatadi. Pedagoglar mehnatini munosib rag'batlantirish ham tizim islohotlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Oxirgi yillarda bog'chlar tarbiyachilari maoshi ikki barabar oshirildi va ularning moddiy manfaatdorligi maqtab o'qituvchilari darajasiga yetkazildi. Shu orqali pedagog o'z kasbini sof ijtimoiy missiya emas, balki hayot uchun munosib daromad manbai sifatida ham qabul qilishi mumkin bo'ldi. Bu holat kadrlar sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda: har yili kamida o'n ming tarbiyachining oliy ma'lumot olishi natijasida mutaxassislar yetishmovchiligi bosqichma-bosqich bartaraf etilyapti.

Yangi qabul qilingan qarorlar maqtab ta'limining mazmun-mohiyatiga jiddiy o'zgarishlar olib kirmoqda. Jumladan, maqtab maslahatchisi lavozimi joriy etilishi 7-sinfdan boshlab o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. Bu orqali o'quvchi o'z yo'nalishini etarqog belgilaydi va 9-sinfdan keyin texnikum yoki umumta'lim maktabini tanlaydi. Bunday tizim, avvalo, ta'limning amaliy yo'naltirilganini kuchaytiradi, ikkinchidan, yoshlarning vaqt yo'qotmasdan, o'z kelajak kasbiga aniq qadam tashlashiga sharoit yaratadi. Ushbu yangiliklar uzluksiz ta'limning izchilligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Yangi qabul qilingan qarorlar maqtab ta'limining mazmun-mohiyatiga jiddiy o'zgarishlar olib kirmoqda. Jumladan, maqtab maslahatchisi lavozimi joriy etilishi 7-sinfdan boshlab o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini aniqlash imkonini beradi. Bu orqali o'quvchi o'z yo'nalishini etarqog belgilaydi va 9-sinfdan keyin texnikum yoki umumta'lim maktabini tanlaydi. Bunday tizim, avvalo, ta'limning amaliy yo'naltirilganini kuchaytiradi, ikkinchidan, yoshlarning vaqt yo'qotmasdan, o'z kelajak kasbiga aniq qadam tashlashiga sharoit yaratadi. Ushbu yangiliklar uzluksiz ta'limning izchilligi va samaradorligini ta'minlaydi.

## Texnikum va kasbiy ta'limda yangiliklar

Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi ko'rsatadiki, kasb-hunar ta'limi iqtisodiy rivojlanish va inson kapitali sifati uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xususan, Xitoy, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarda bu sohaning qo'llab-quvvatlanishi sanoat va texnologiyadagi yuqori natijalarni ta'minlamoqda. Chunonchi, Germaniyaning dual ta'lim tizimi yo'nalishidagi tajribasi ko'plab mamlakatlar, jumladan, AQSHda tajriba sifatida qo'llanilib keladi, texnikumlar va oliy ta'limga joriy qilingan.

O'zbekistonda ham texnikum va kasbiy ta'lim tizimiga berilgan ustuvor e'tibor kelgusida muhandislik sohasi va tadbirkorlikni hududlar kesimida kengaytirish, mahalliy iqtisodiyotda innovatsiya va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga zamin yaratmoqda.

Yig'ilishda kasbiy ta'lim tizimidagi eng muhim vazifalardan biri pedagog va ishlab chiqarish ustalarini malakasini oshirish hamda ular mehnatini munosib rag'batlantirish ekanini aytiladi. Shu maqsadda milliy yoki xalqaro sertifikatga ega o'qituvchi va ustalarning oylik maoshiga 30-50 foiz ustama qo'shib berilishi belgilangan. Bu tizim ularni uzluksiz ravishda o'z ustida ishlashga, yangi texnologiyalar va o'qitish usullarini o'zlashtirishga rag'batlantiradi.

Texnikum direktorlari va ularning o'rinsosarlari maqtab rahbarlari bilan teng maosh olishi belgilandi. Agar ular "Direktorlar maktabi" dasturi orqali sertifikatga ega bo'lsa, qo'shimcha ravishda 20 foiz ustama bilan rag'batlantiriladi. Iqtisodiy qo'llab-quvvatlov rahbar kadrlar boshqaruv salohiyatini oshirish, ta'lim muassasalarida samaradorlik va shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Endilikda kasbiy ta'limni amaliyot bilan chambarchas bog'lash maqsadida har yili 500 o'qituvchi xorijiy ta'lim muassasalarida malaka oshirsa, yana 500 ishchi-usta yirik zavod va korxonalarga stajirovkaga yuboriladi.

Bir so'z bilan aytganda, kasbiy ta'lim tizimi nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmay, amaliyotga yo'naltirilgan zamonaviy ko'nikmalar bilan boyiydi. Bu esa yoshlarni nafaqat mahalliy, balki xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi.

## Fan va innovatsiyalar markaziga aylanayotgan tizim

"Ijtimoiy davlat" dunyo mamlakatlari tajribasida jamiyatning ijtimoiy adolat va inson qadrlari ta'minlashga qaratilgan noyob institut sifatida e'tirof etiladi. O'zbekistonda ham "Inson qadri uchun" tamoyili asosida ijtimoiy davlat boshqaruvi shakllantirilib, xalqchillik va samaradorlikka tayanadigan yangi tizim yo'lga qo'yildi. Bu jarayon mamlakat taraqqiyotida tub burilish yasab, ta'lim sohasini ham izchil yangilashga zamin bo'ldi.

Bir paytlar abituriyent uchun oliygohga hujjat topshirish murakkab va og'ir jarayon edi.

Masalan, oliygohga kirish imkoniyatiga ega bo'lmagan 200 mingdan ziyod yosh uchun texnikumlarda qisqa muddatli dasturlar asosida kasb egallashga sharoit yaratiladi. Bu orqali yoshlar ta'lim tizimidan chetda qolib ketmaydi, ularada mehnat bozori talabiga javob beruvchi amaliy ko'nikmalar shakllanadi. Hech bir yosh bilim va kasbsiz qolmaydi degan g'oya davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga, maktabdan texnikumga uzluksiz o'tish tizimi inson kapitali sifati oshishi kafolatiga aylanmoqda.

So'nggi yillardagi keng ko'lami islohotlar natijasida oliy ta'lim tizimi misli ko'rilmagan sur'atda rivojlandi. 2016-yilda mamlakatimizdagi oliygohlar soni 77 ta bo'lgan, bugun esa 202 taga yetdi. Talabalar kontingenti esa 250 mingdan 1,5 million nafargacha ko'paydi. Bu o'zgarishlar yoshlar uchun ta'lim eishiklarini keng ochdi, o'qishga kirib qo'yish" kabi illatlarni yo'qotdi, jamiyatda bilim orqali yuqori marraga chiqish imkoniyatini mustahkamladi.

Shu bilan birga, professor-o'qituvchilar moddiy manfaatdorligi keskin oshirildi. Maoshlar ko'tarilishi natijasida oliygohlarda ishlab nafaqat obro'li, balki yosh kadrlar uchun orzu qilinadigan kasbga aylandi. Bu holat kadrlar sifati oshishiga, ilmiy tadqiqot ishlari va ta'lim jarayoni xalqaro andozalarga yaqinlashishiga xizmat qilmoqda.

Oliy ta'limdagi islohotlar tufayli hozir yurtimizdagi bir necha universitet nufuzli xalqaro reytinglarda TOP-1000 talik ro'yxatga kirgani quvonarli holdir. Yig'ilishda ta'kidlaganidek, yaqin yillarda O'zbekistondagi kamida 10 ta oliygoh dunyo reytinglaridagi TOP-1000 talik ro'yxatdan joy olishi rejalashtirilgan. Bu maqsadga erishish uchun axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, agrotehnologiya, tibbiyot va "yashil" energetika kabi strategik yo'nalishlarda xalqaro qo'shma dasturlar amalga oshirildi. Shuningdek, dunyodagi nufuzli universitetlar filiallarini ochish orqali talabalar xalqaro miqyosda tan olinadigan bilim va malakaga ega bo'lish imkoniyatiga erishadi. Bunday chora-tadbirlar mamlakatimizni mintaqaviy ta'lim va fan markaziga aylantirishda muhim qadamdir. Kelgusida xorijiy talabalar soni kamida besh barobar ko'payishi, ta'lim eksporti hajmi 200 million dollarga yetishi kutilyapti. Bu esa iqtisodiyot uchun qo'shimcha resurs manbai bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga, O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshiradi.

Shu tariqa oliy ta'lim tizimi nafaqat bilim olish maskani, balki fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqot markaziga aylanib bormoqda. Bu jarayon yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun kuchli intellektual poydevor yaratib, jamiyatning barqaror rivojlanishi va global raqobatga tayyor avlodni shakllantirishga zamin yaratadi.

Yangi O'zbekistonni qurishdek tarixiy yo'lda ta'lim sohasi barcha islohotlar markazida turibdi. Davlat siyosatining uzluksiz ustuvor yo'nalishi sifatida maqtabgacha ta'limdan tortib, oliygohgacha, texnikumlardan tortib, ilmiy-tadqiqot institutlarigacha bo'lgan barcha bo'g'inlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayon, avvalo, inson kapitaliga qaratilgan davlat siyosatining izchilligi va uzluksizligi bilan izohlanadi.

Hozirgi paytda ta'lim tizimi nafaqat bilim berish funksiyasini bajarmoqda, balki yosh avlodning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash va ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashda hal qiluvchi o'rinni tutmoqda.

Ta'lim sifati, professor-o'qituvchilar, ustoz va murabbiylar nufuzi hamda pedagoglar manfaatli davlat siyosatida eng ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu esa jamiyatda o'qituvchi shaxsiga bo'lgan hurmat va ehtiromni yanada yuksaltirmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonda eng hurmatli inson — o'qituvchi, eng muqaddas soha — ta'limdir".









# AVLONIY STIPENDIYASI

Rag‘bat

## OLIYGOHLARDA BO‘LAJAK FIDOYI PEDAGOGLARNI KASHF ETADI

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM  
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

O‘tgan yili O‘qituvchi va murabbiylar kuni oldidan davlatimiz rahbari Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutiga tashrif buyurib, soha vakillari bilan muloqot qilgan edi. Suhbatda bugun ta‘lim va tarbiya sohasidagi barcha o‘zgarishlar markazida bilimdon, ijodkor, vatanparvar va jonkuyar muallim shaxsi turishi kerakligi ta‘kidlangan. Tizimda erishilayotgan muvaffaqiyatlar qatori 2024-yilda sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida o‘tkazilgan attestatsiya jarayonlarida 21 ming pedagog malaka bo‘yicha yetarli ball to‘play olmaganlari esa afsus bilan aytilgandi.

Bunday holatlar o‘quvchilarning bilimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishidan kelib chiqib, ta‘lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha 7 ta yo‘nalishda vazifalar belgilab olindi. Ana shu vazifalar doirasida Prezidentimiz pedagogika yo‘nalishida

tahsil olayotgan iqtidorli talabalar uchun Avloniy nomidagi stipendiya tashkil etish tashabbusini bildirdi. Zero, bu orqali bo‘ljak fidoyi o‘qituvchilar, eng ilg‘or pedagoglarni kashf qilish mumkin. Shu bois, 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab pedagogika

yo‘nalishidagi oliygoch talabalar uchun Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiya ta‘sis etildi. Yaqinda Prezidentimizning bu boradagi farmoni ham imzolandi. Nufuzli stipendiyalar safi yana bittaga kengaydi.

Mamlakatimizda Avloniy stipendiyasiga qadar oliygoch talabalar uchun qanday davlat stipendiyalari bor edi?

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi taqdim etgan ma‘lumotlarga ko‘ra, tadqiqotchilik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan va butun o‘qish davrida a‘lo baholarga o‘qigan oxirgi o‘quv yili talabalar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi ta‘sis etilgan. Uning soni magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha jami 22 ta, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha har bir oliy ta‘lim muassasasi uchun bittadan belgilangan.

Shuningdek, talabalar uchun Beruniy (texnika yo‘nalishlarida), Ibn Sino (tibbiyot yo‘nalishlarida) Navoiy (gumanitar yo‘nalishlarda), Kamoliddin Behzod (tasviriy va amaliy san‘at hamda dizayn yo‘nalishlarida), Ulug‘bek (tabiiy yo‘nalishlarda), Xudoybergan Devonov (kinematografiya yo‘nalishida), Bobur (tarix va geografiya yo‘nalishlarida), Pahlavon Mahmud (jismaniy tarbiya va sport yo‘nalishlarida), Imom al-Buxoriy (O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida) stipendiyalari ta‘sis etilgan.

Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi oliy ta‘lim muassasalarida To‘lepbergen Qaipbergenov va Ibroym Yusupov, barcha yo‘nalishlarda Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyalari talabalarga to‘lab kelinayapti.

Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiyasini kimlar olishi mumkin?

Prezidentimiz farmoni asosida mazkur stipendiya pedagogika yo‘nalishidagi har bir oliy ta‘lim tashkilotining bir nafar oxirgi ikki kurs talabasiga tayinlanadi. Farmonga muvofiq, stipendiya joriy o‘quv yilidan boshlab yo‘lga qo‘yiladi. Uning miqdori oyiga 1 million 461 ming 28 so‘m etib belgilandi. Ayni vaqtda stipendiya pedagogika yo‘nalishidagi mavjud 13 ta oliygochning 74 ming 480 nafar oxirgi ikki kurs talabasi nomzod bo‘lishi mumkin.

### Barno Abdullayeva, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti o‘qituvchisi:

— Bu yil muborak 90 yilligini nishonlayotgan otaxon oliygochimizda tahsil olayotgan 20 ming talaba orasida buyuk ajdodimizning munosib vorislari ko‘p. Nasib qilsa, biz Abdulla Avloniyning asl izdoshlarini aniqlashda qiynalmaymiz. Negaki bilim dargohimizda har yili alloma hayoti, faoliyati bo‘yicha tanlovlar o‘tkazamiz. Barcha fakultetlardan talabalarimiz bu tanlovlarga katta qiziqish bildiradi. Shuningdek,

Abdulla Avloniyning Adiblar xiyobonidagi ramziy simosi oldida muntazam tadbirlar tashkil etib kelyapmiz. Bu ham qaysidir ma‘noda Abdulla Avloniy stipendiyasi sovrindorlarini xolis aniqlashimizga xizmat qiladi.

Oliygoch talabalar bilan uchrashuvda shuni sezdikki, ozgina e‘tibor, salgina rag‘bat insonni ruhlantiradi, yangi maqsadlar sari yo‘llab, hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirishga turkii bo‘ladi. Talabalar davlatimizning Abdulla Avloniy shaxsiga bunday hurmatni yangi O‘zbekiston ta‘lim tizimiga yuksak e‘tibor deya baholayotgani quvonarli.

### Rayhona Tillayeva, Namangan davlat universiteti filologiya kafedrasini mudiri:

— O‘zbekistonda pedagogika sohasida ta‘lim olayotgan yoshlar uchun tom ma‘noda tarixiy ahamiyatga ega yangi tashabbus kuchga kirdi. Bu yoshlarimiz uchun yana bir imkoniyat. Zero, bugungacha texnik, tibbiy, gumanitar va yana ko‘plab yo‘nalishlarda davlat stipendiyasini olish imkoni bor edi. Pedagogika yo‘nalishi talabalar uchun esa alohida stipendiya mavjud emasdi. Yangi farmon bu bo‘shliqni to‘ldirib, bo‘ljak

o‘qituvchilar mehnatini munosib rag‘batlantirishga qaratildi.

Mazkur qaror pedagog kadrlar salohiyatini oshirishda, bilimni va zamonaviy fikrlaydigan avlodni tarbiyalashda muhim omil bo‘ladi. Bu esa ta‘lim islohotlarining izchil davomi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu tariqa Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiyasi pedagogika yo‘nalishi talabalar uchun katta sharaflar va mas‘uliyat bo‘lib xizmat qiladi. Yangi stipendiya nafaqat moddiy rag‘batlantirish vositasi, balki pedagogik soha nufuzini yuksaltirish, yoshlarni ushbu yo‘nalishga kengroq jalb etishda ham muhim omilga aylanishi shubhasiz.

\*\*\*

### Gullola To‘ymurodova, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti magistranti:

— Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiyasini tashkil etish tashabbusi, avvalo, o‘z vaqtida milliy maorifimizga jon fido qilgan millatdoshimiz ruhiga cheksiz hurmat belgisi. Mazkur stipendiya biz, yoshlarning ilmiy izlanishlarimiz uchun qo‘llov, rag‘bat bo‘lib xizmat qilishi kutilmoqda. Bu orqali zamon talabalariga mos kadrlar yetirish chiqishiga zamin yaratish ko‘zda tutilgan ekan, ushbu euzu niyat yo‘lida astoydil harakat qilamiz. Zero, bugungi talabalarga yaratilayotgan boshqa sharoit imtiyozlar ham yoshlar oldiga faqat o‘qish, o‘z ustida ishlash maqsadini qo‘yyapti. Porloq kelajagini o‘z sohasida ko‘ra olgan talaba o‘z-o‘zidan yaxshi o‘qiydi va buning ortidan nomdor stipendiyalarga sazovor bo‘laveradi. Ya‘ni bilim bo‘lsa, pulning o‘zi uning ortidan boradi. Shuning uchun bor e‘tiborni puxta bilim olishga qaratish kerak.

Bugun tajriba tariqasida maktablarda pedagoglik kasbiga qiziqqan 10-11-sinf o‘quvchilari uchun alohida sinflar tashkil etilayotgani, kelajakda ushbu sinflarni tamomlagan o‘quvchilar shu yo‘nalishdagi oliygochlarga kirs, ularga 2-kursdan maktabga borib, kasbiy mahoratini oshirishi uchun imkoniyat yaratilishi ham hech bir davrda bo‘lmagan yangilik. Alohida qobiliyatga ega talabalarga dars o‘tganlari uchun oylik to‘lanishi esa — chinakam g‘amxo‘rlik.

Ha, ta‘lim sifatini oshirishga intilar ekanmiz, buning uchun, avvalo, o‘qituvchilarimizning bilim darajasi, mahoratini o‘stirishga e‘tibor qaratayotganimiz bejiz emas. Zero, saboq berguvchining o‘zi yuqori savodga ega bo‘lsagina, zukko, barkamol shogirdlar yetishadi. Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiyasini ta‘sis etishdan asosiy maqsad ham shu. Mazkur stipendiya chindan ham allomaning o‘zi kabi ta‘lim fidoyilarini tarbiyalashga xizmat qilsa, ne ajab. Ular safi yildan yilga ko‘payib borishi bilan kuchli bilimiga ega o‘qituvchilar armiyasiga ega bo‘lishimiz mumkin. Bunday armiyada esa vataniga, kasbiga sodiqlar tarbiyalanadi.

Munajat MO‘MIANOVA,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



## Bugunning gapi

Bugun xalqaro miqyosdagi keskin raqobat va shiddatli texnologik yangilanishlar sharoitida aynan bilim, kompetensiya va kreativlik qaysi mamlakat yetakchi bo‘layotganini, qaysi bira soya qolayotganini ko‘rsatmoqda.

Taqos va tahlillar bugungi tub o‘zgarishlar ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Sakkiz yil avvalgi mamlakatimiz ta‘lim tizimi haqida, to‘g‘risi, ijobiy fikr aytish mushkul. Bugun esa manzara butunlay o‘zgardi. Sakkiz yil ichida ta‘lim tizimimizda sifat jihatidan ulkan sakrash bo‘ldi. Eski va avariya holatidagi binolar o‘rinda keng, yorug‘, texnologik jihatdan to‘liq jihozlangan zamonaviy

shaxs shakllanadigan haqiqiy laboratoriya bo‘lishi kerak. Maktab o‘quvchida tanqidiy fikrlash, mas‘uliyat, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Shu bois, dars mashg‘ulotlari, darsliklar yangilanmoqda, zamonaviy xalqaro standartlar, raqamli texnologiyalar faol ravishda joriy etilyapti. Pedagoglarning tayyorgarligi, til o‘rganish va kasbiy ta‘lim kengaymoqda.

Yangilanishlar jarayonida maktab innovatsiyalar markazi, raqamli iqtisodiyot va global o‘zgarishlarga moslashuv maydoniga aylanmoqda. Zero, bugungi globallashuv har birimizdan tinimsiz o‘qish va izlanishni talab qiladi. Maktablar esa bu jarayonda bilimni mustaqil izlash, kreativ

Xususan, “Kelajak” markazlari maktablar bilan uzviy va maqsadli tadbirlarni jonlantirib, muhandislik, ilm-fan, madaniyat, san‘at, kitobxonlik, sport va ekologiya yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quvchilarni to‘garaklarga jalb qiladi. Bu tizim bilan barcha maktablar qamrab olinadi. Har bir o‘rta maktabda maslahatchi lavozimi joriy qilinadi. Maslahatchilar o‘quvchilarning qobiliyati va qiziqishiga qarab til, kasb, muhandislik, ijod, san‘at va sport to‘garaklarini tashkil qiladi.

Mahalladagi yoshlar yetakchilari esa o‘quvchilarning maktabdan tashqari vaqtni mazmunli o‘tkazishi uchun mas‘ul bo‘ladi. Eng asosiysi, endi maktablarda o‘quvchilarning to‘garaklar, sport, volontyorlik va olimpiadalarda erishgan natijalari bo‘yicha raqamli portfoliosi shakllanib, elektron shahodatnomada ko‘rsatiladi.

Yana bir muhim jihat. Joriy yil 8-sentabr kuni ta‘lim tizimini isloh qilish masalalariga oid taqdimotda Prezidentimiz yosh avlodni tarbiyalashning yagona konsepsiyasi bilan tanishgan edi. Konsepsiyaga ko‘ra, endilikda yosh toifalari bo‘yicha milliy tarbiya modeli yaratiladi. Bu orqali bolalar zamonaviy kompetensiyaga ega mutaxassis bo‘lish bilan birga milliy qadriyatlarga sodiq inson etib tarbiyalanadi.

Buning ilk qadami sifatida yangi o‘quv yilidan barcha bog‘cha, maktab va oliygochlarda har dushamba kuni “Kelajak soati” darslari o‘tilmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad umuminsoniy, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik g‘oyasi, O‘zbekistondagi islohotlarni bolalarga chuqurroq, zamonaviy usullarda yetkazishdan iborat.

Shuningdek, Prezidentimiz joriy yil 15-sentabr kuni Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida o‘qituvchi va murabbiylar bilan muloqotida soha xodimlarining ijtimoiy sharoitini yaxshilash bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, yangi yildan boshlab kamida 15 yil stajga ega bo‘lgan oliy toifali pedagoglarga ipoteka krediti boshlang‘ich badalining 25 foizi qoplab beriladi. Kelgusi o‘quv yilida davlat oliygochlariga o‘qishga kirgan pedagoglar farzandlarining shartnomasi summasiga 30 foiz chegirma taqdim etiladi. O‘qituvchilar yangi ta‘lim texnologiyalarini keng o‘rllashi uchun kompyuter xaridiga 10 million so‘mgacha imtiyozli kredit ajratiladi.

Kelasi yildan pedagoglar uchun davlat xizmatlari to‘lovi 2 karra kamaytiriladi. Fan o‘qituvchilari kabi boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari uchun ham milliy sertifikat berish tizimi joriy qilinadi. Sertifikat olganlarga har oyda 15 foiz ustama to‘lanadi.

Birso‘z bilan aytganda, mamlakatimizda ta‘limning barcha bog‘chalarini izchil rivojlantirilmoqda. Yangi ta‘lim maskanlari zamonaviy jihozlari, yoshlarning bilim olishiga barcha sharoit yaratilmoqda. O‘quv dasturlari yangilanib, eng ilg‘or tajribalar joriy etilmoqda.

Albatta, yig‘ilishda belgilangan qator muhim vazifalar, ustoz va murabbiylarga yaratilayotgan bunday sharoit, imtiyoz va rag‘bat yoshlarning mukammal bilim olishi, buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar bo‘lib kamolga yetishiga mustahkam zamindir.

Lutfulla SUVONOV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

## ILK SOVRINDORLIKNING KATTA MAS‘ULIYATI

### Begoyim VARISOVA, Namangan davlat pedagogika institutini tabasi

Prezidentimizning Namangan viloyatiga tashrifi chog‘ida viloyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda ishtirok etib, faol talaba sifatida so‘z olganim hayotimdagi eng unutilmas voqea bo‘ldi. Gap shundaki, davlatimiz rahbariga oliy ta‘limda yoshlarga yaratilayotgan beqiyos imkoniyatlar, xususan, talabalarga grantlar taqdim etilishi borasidagi ishlr uchun minnatdorlik bildirdim. Haqiqatan, endi to‘lov-shartnomada asosida oliygochga kirgan yoshlar darsdan so‘ng ishlab, ota-onamga yordam beraman deb emas, yaxshi o‘qib, davlat grantiga ega bo‘laman deb harakat qiladi.

Pedagogika yo‘nalishi talabalariga Abdulla Avloniy nomidagi davlat stipendiyasi ta‘sis etilgani esa bu soha vakillariga yuksak hurmat, alohida

e‘tiborning hayotiy isboti bo‘ldi. Maktablarda maslahatchi lavozimi, “Kelajak” markazlari tashkil etilishi ham bo‘lg‘usi pedagoglar hayotida muhim omil bo‘lishiga umid bildirdim.



Munosabat



